

ISHLAB CHIRARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING ILMIY ASOSLARI

Levakov Izzatulla Nematillayevich

i.f.f.d, v.b dots,

University of Business and Science, “Menejment” kafedrasi mudiri

izzatillalevakov@gmail.com

+99888-441-05-09

Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi

University of Business and Science magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning ilmiy asoslari o‘rganilgan bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi korxonalariga uning ta‘siri tahlil qilingan. Diversifikatsiya jarayoni korxonalarining barqarorligini oshirish, risklarni kamaytirish va bozor talablariga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Matematik modellar va nazariyalar yordamida diversifikatsiyaning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari diversifikatsiya strategiyasini qo‘llash orqali erishiladigan iqtisodiy yutuqlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, ishlab chiqarish, risklarni kamaytirish, iqtisodiy samaradorlik, portfel nazariyasi, stoxastik modellar, bozor talabi.

I. KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish jarayonida modernizatsiya va diversifikatsiya strategiyalariga alohida e‘tibor qaratmoqda. 1991-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish jarayoni natijasida yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘ati barqaror saqlanmoqda. Xususan, 2019-yil yakunlariga ko‘ra, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sezilarli o‘shish kuzatildi. Jumladan, yalpi ichki mahsuloti- 8,0%, qishloq xo‘jaligi- 6,8%, sanoat ishlab chiqarishi - 8,8%, chakana savdo aylanmasi - 14,8% tashkil etdi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning mohiyati va ahamiyati

Respublikamizda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash hamda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishni takomillashtirish, rivojlangan mamlakatlar qatori zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash va mahsulot raqobatbardoshligiga erishish uchun uning sifatini oshirish jarayonida qo‘l keladigan taklif va tavsiyalarni tahlil qilish va uni amalga qo‘llay olish hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek, “Tadbirkorlik va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, ularni zamonga mos holda diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ularning imkoniyatlardan to‘la foydalanish xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi va shunda biz qurayotgan jamiyat o‘z-o‘zidan rivojlanish yo‘liga qadam qo‘yadi”.⁹⁵

⁹⁵O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2017-yil 27-oktabrdagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilish hamda uning raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘llari va choralari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbatı

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi xo‘jalik boshqaruv xodimlarining qabul qilayotgan strategik qarorlari bir tarmoqning imkoniyatlaridan foydalanib, olayotgan daromadning o‘zgarmasligi yoki bir tekisda kichik bo‘lsa ham o‘sishiga qaratilgan bo‘lsa, bunday korxonalar uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash kerak emas hisoblanadi. Agarda faoliyat yurituvchi xo‘jalikning kelgusi maqsadi bozorni yanada kengroq egallash hamda korxonaning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, ushbu korxonaga uchun diversifikatsiyalash strategiyasi zarur hisoblanadi.

Korxonada ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali tavakkalchiligini bir nechta mahsulot va xizmatga tarqatadi. Bu strategiya bozorda raqobatbardoshligini oshirishda, yangi imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Yuqorida aytib o‘tilganidek barcha turdagi korxonalar uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zarur emas. Ammo boshqaruv qarorlari qabul qilinganda qaysi turdagi diversifikatsiya amalga korxonaga uchun muqobil variant bo‘lishi va bu strategiyani qaysi vaqt amalga oshirish ijobiy natija berishiga e‘tibor berilishi lozim. Yani strategik diversifikatsiya har doim ham ijobiy natijaga olib kelmasligi ham mumkin. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida korxonaning avvalgi va strategiya amalga oshirilgandan keying olingan foydaning o‘rtasida quyidagicha tenglik orqali baxolash mumkin. Diversifikatsiya korxonaga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Tavakkalchilikni bir nechta mahsulot va xizmatlarga taqsimlash;
- Bozorda raqobatbardoshlikni oshirish;
- Yangi imkoniyatlardan foydalanish.

Ammo diversifikatsiya har doim ham ijobiy natija bermaydi. Korxonaning avvalgi va strategiya amalga oshirilgandan keyingi foydasi quyidagi formulaga ko‘ra baholanadi:

$$D_{af} < D_{kf} \Rightarrow \text{salbiy}$$

$$D_{af} = D_{kf} \Rightarrow \text{o'zgarmas}$$

$$D_{af} > D_{kf} \Rightarrow \text{ijobiy}$$


Ammo bazi bir yirik korxonalar diversifikatsiyadan ko‘zlagan maqsadlari faqatgina foyda olish emas balki bozordagi o‘rinlarini yanada kengaytirish, o‘z nomlari ostida ishlab chiqarilgan maxsulotni brend darajasiga olib chiqish hamda riskni maxsulot turlariga taqsimlashdir.



1-rasm. Diversifikatsiyalashning foydasi⁹⁶

⁹⁶Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning strategik afzalliklari, eng avvalo, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytirish va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatlarini yaratishda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy jihatdan esa bu jarayon yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishchi kuchining samaradorligini oshirish hamda iste‘molchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga mos sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning asosiy yo‘nalishi yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgani sababli, strategik tahlil va rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa korxonaga tanlangan diversifikatsiya strategiyasining rentabelligini baholash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlash imkonini beradi.



2-rasm. Diversifikatsiyalashning strategik afzalliklari.⁹⁷

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashda riskni kamayishini ilmiy asosga ham egadir. Matematik nuqtai nazardan, diversifikatsiya riskni qanday kamaytirishini quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Korrelyatsiya va dispersiya. Diversifikatsiya orqali aktivlar o‘rtasidagi korelyatsiyani kamaytirish mumkin. Agar aktivlar o‘rtasida manfiy korelyatsiya bo‘lsa, birining qiymati oshganda boshqasining qiymati pasayadi, bu esa portfelning umumiy riskini kamaytiradi. Matematik jihatdan, portfelning umumiy riskini (dispersiyasini) hisoblashda aktivlar o‘rtasidagi korelyatsiya muhim rol o‘ynaydi. Diversifikatsiya orqali korelyatsiyani kamaytirish, portfelning umumiy riskini pasaytiradi.

2. Nosistemik riskni kamaytirish. Diversifikatsiya orqali nosistemik riskni kamaytirish mumkin. Nosistemik risk-bu faqat bitta aktiv yoki sanoatga xos bo‘lgan risk bo‘lib, uni diversifikatsiya orqali kamaytirish mumkin. Biroq, sistemik riskni diversifikatsiya orqali kamaytirish mumkin emas, chunki u butun bozorga ta‘sir qiladi.

3. Portfel nazariyasi. Markovitsning portfel nazariyasiga ko‘ra, diversifikatsiya orqali portfelning umumiy riskini kamaytirish mumkin. Bu nazariyaga ko‘ra, turli aktivlarni birlashtirish orqali portfelning umumiy riskini minimallashtirish mumkin.

⁹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish sanoat va iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy xavflarni kamaytirish va barqaror o‘shirishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha ko‘plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda Ansoff (1957) diversifikatsiya strategiyalarini kontsentrik, konglomerat va gorizontol diversifikatsiya kabi asosiy shakllarga ajratgan bo‘lsa, Porter (1985) diversifikatsiyani raqobat ustunligini shakllantirishdagi strategik vosita sifatida ko‘rib chiqadi. Barney (1991) esa resurslarga asoslangan qarash orqali diversifikatsiyaning muvaffaqiyatini kompaniyaning ichki salohiyatiga bog‘liq deb hisoblaydi. Iqtisodiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish A.Thompson, M.Porter, A.A.Tatuev va O.A.Larionova kabi xorijiy olimlarning asarlarida o‘rganilgan. Ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning quyidagi yo‘nalishlarini aniqladilar:⁹⁸

- ishlab chiqarish majmualarini rivojlantirish;
- keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish;
- raqobatbardoshlikni oshirish.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, OECD (2020) tadqiqotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali mamlakatlarning eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy inqirozlarga chidamliligini mustahkamlash mumkinligini ko‘rsatadi. IMF (2021) tahlillariga ko‘ra, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish mehnat bozori barqarorligini ta‘minlab, yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Mahalliy tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi “Iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari” farmoni ishlab chiqarishning yangi tarmoqlarga kengaytirilishini rag‘batlantirish, texnologik modernizatsiya va eksport hajmini oshirishga qaratilganligini ta‘kidlaydi. “O‘zbekiston 2030” strategiyasi esa ishlab chiqarishning yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarini rivojlantirish va mahalliy sanoatni diversifikatsiya qilishni ustuvor vazifalar qatoriga kiritgan.

Jahon banki (2023) ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sanoatida amalga oshirilayotgan diversifikatsiya jarayonlari eksportning yangi bozorlarga chiqishini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD, 2021) ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish uchun infratuzilma va investitsion muhitning yaxshilanishi muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi. Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning ilmiy asoslarini tasdiqlaydi va uni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar, texnologik rivojlanish, investitsiyalarni jalb qilish hamda sanoatni qo‘llab-quvvatlovchi siyosat zarurligini ko‘rsatadi.

⁹⁸ Baxtiyar Ruzmetov, Sherzod Ruzmetov, Shakhzod Bakhtiyarov, Zulfiya Dzhumaeva and Khusan Juraev “Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry”; 2023

III. NATIJALAR

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diversifikatsiya qilingan iqtisodiyot inqiroz va tashqi bozordagi o‘zgarishlarga kamroq bog‘liq bo‘lib, uzluksiz o‘sish imkoniyatlariga ega.

Xalqaro tadqiqotlar diversifikatsiyaning YaIM o‘shirishini tezlashtirishini tasdiqlaydi. OECD (2020) ma‘lumotlariga ko‘ra, bunday iqtisodiyot inqirozlarga tez moslashadi. IMF (2021) ishlab chiqarish hajmining oshishi yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Porter (1990) modeli esa diversifikatsiyada innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. O‘zbekiston misolida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi sanoatni avtomatlashtirish va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Jahon banki (2023) ishlab chiqarish diversifikatsiyasining bandlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan. O‘zbekistonda sanoatni modernizatsiya qilish va kichik biznesni rivojlantirish natijasida yangi ish o‘rinlari ortib bormoqda. UNCTAD (2021) eksport hajmini oshirish diversifikatsiyaning asosiy natijalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. “Made in Uzbekistan” dasturi milliy brendni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.

Ishlab chiqarishning kengaytirilishi investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Jahon banki (2022) va McKinsey (2023) tahlillariga ko‘ra, iqtisodiy barqarorlikni oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun diversifikatsiya muhim omildir.

IV. MUHOKAMA

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish global iqtisodiy o‘zgarishlar fonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu strategiya sanoat barqarorligi, bandlik, eksport va tashqi iqtisodiy chidamlilikni oshirishga xizmat qiladi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur) diversifikatsiya orqali yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga erishgan. Harvard Business Review (2022) tadqiqotlariga ko‘ra, muvaffaqiyat texnologik innovatsiyalar va davlat siyosatiga bog‘liq. O‘zbekistonda asosiy muammolar texnologik bazaning rivojlanmaganligi, malakali ishchi kuchining yetishmovchiligi va xomashyo resurslariga bog‘liqlikdir.

Hukumat ishtiroki muhim bo‘lib, Porter (1990) modeli davlat siyosatini texnologik taraqqiyot, soliq imtiyozlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘laydi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi avtomatlashtirish va IT infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan, sanoat klasterlari esa mehnat unumdorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Islohotlarning samaradorligi uchun byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, investorlar uchun jozibador muhit yaratish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologik taraqqiyot, rivojlangan infratuzilma va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash muvaffaqiyatli diversifikatsiyaning asosiy shartlaridir. Janubiy Koreya va Singapur davlat investitsiyalari orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga o‘tgan, Germaniya va Yaponiya innovatsion ekotizim yaratgan, AQSh va Yevropa Ittifoqi esa tadbirkorlikni rivojlantirish orqali

diversifikatsiyani amalga oshirgan. O‘zbekiston ushbu tajribadan foydalanib, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlash orqali jarayonni tezlashtirishi mumkin.

Muhokama natijalariga ko‘ra, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun zarur. Biroq, texnologik rivojlanish, malakali kadrlar tayyorlash va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha muammolar yechilishi lozim. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston diversifikatsiya siyosatini takomillashtirishi, davlat-xususiy sektor hamkorligini kengaytirishi va innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishi kerak.

V. XULOSA

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim strategik yo‘nalishdir. Diversifikatsiya sanoatning innovatsion rivojlanishi, eksport hajmining oshishi, mehnat bozorining kengayishi va global iqtisodiy shoklarga bardoshlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba, jumladan, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya va AQSh misolida, bu jarayon texnologik taraqqiyot, xususiy sektor va davlat hamkorligi, investitsion muhitning yaxshilanishiga bog‘liq.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan. Biroq, texnologik bazaning rivojlanmagani, malakali ishchi kuchi yetishmovchiligi, byurokratik to‘siqlar va investitsiya resurslarining cheklanganligi diversifikatsiya jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Diversifikatsiyani jadallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

1. Texnologik rivojlanish va innovatsiyalar – ilmiy tadqiqot va startaplarni moliyalashtirishni kengaytirish.

2. Sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish – yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish.

3. Malakali kadrlar tayyorlash – ta’lim tizimini diversifikatsiya ehtiyojlariga moslashtirish.

4. Xususiy sektor va investitsiyalarni jalb qilish – biznes muhitini yaxshilash, soliq imtiyozlari taqdim etish.

5. Eksportni rivojlantirish – xalqaro bozorga chiqish strategiyasini takomillashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida O‘zbekiston innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirib, global bozor talablariga mos keladigan, raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo‘lishi mumkin.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilish hamda uning raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘llari va choralari mavzusida o‘tkazilgan davra suhbat. – 2017-yil 27-oktabr.

2. Ruzmetov, B., Ruzmetov, Sh., Bakhtiyarov, Sh., Dzhumaeva, Z., Juraev, Kh. Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry // 2023.
3. Ansoff, I. Corporate Strategy / I. Ansoff. – New York: McGraw-Hill, 1965. – 241 p.
4. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance / M. E. Porter. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.
5. Rumelt, R. P. Strategy, Structure, and Economic Performance / R. P. Rumelt. – Boston: Harvard Business School, 1974. – 300 p.
6. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development / J. A. Schumpeter. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
7. Williamson, O.E. Markets and Hierarchies: Analysis and Antitrust Implications / O. E. Williamson. – New York: Free Press, 1975. – 286 p.
8. Abdukarimov, I. Ishlab chiqarishning innovatsion diversifikatsiyasi va uning iqtisodiy samaradorligi / I. Abdukarimov. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 320 b.
9. Usmonov, I. Investitsiyalar va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish: Nazariya va amaliyot / I. Usmonov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 280 b.
10. Hamidov, B. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda diversifikatsiyaning o‘rni / B. Hamidov. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 250 b.
11. Qosimov, H. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda diversifikatsiya strategiyalarining ahamiyati / H. Qosimov. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. – 265 b.
12. Tursunov, B. Kichik biznes subyektlarida diversifikatsiya siyosati va uning rivojlanish omillari / B. Tursunov. – Toshkent: Universitet, 2017. – 298 b.